


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ANALYSIS OF COMMON PROVERBS IN PERSIAN AND UZBEK LANGUAGES*****Saida Sultankhojaeva****Lecturer**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan****Munisa Ochilov****Student**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** proverb, lexico-semantics, culture, art of the word, family, friendship.**Received:** 28.05.23**Accepted:** 30.05.23**Published:** 01.06.23**Abstract:** This article gives a general idea of proverbs, their use, history, analysis and definition of commonly used proverbs in Persian and Uzbek.**FORS VA O‘ZBEK TILLARIDA MUSHTARAK MAQOLLAR TAHLILI*****Saida Sultanxodjayeva****o‘qituvchi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston****Munisa Ochilova****Talaba**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so‘zlar:** maqol, leksik-semantik, madaniyat, so‘z san‘ati, oila, do‘stlik.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqollar haqida umumiy tushuncha, ularning qo‘llanilishi, tarixi, fors va o‘zbek tillaridagi mushtarak maqollarning tahlili va ta‘rifi batafsil yoritiladi.**АНАЛИЗ РАСХОДНЫХ ПОСЛОВИЦ В ПЕРСИДСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ*****Саида Султанходжаева****Преподаватель**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан*

Муниса Очилова

Студент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пословица, лексико-семантика, культура, слова, семья, дружба.

Аннотация: В этой статье дается общее представление о пословицах, их использовании, истории, анализе и определении общеупотребительных пословиц на персидском и узбекском языках.

KIRISH

Bilamizki, har bir millatning o'ziga xos urf-odati, an'anasi va xalq og'zaki ijodi namunalari mavjud. Ular xalq hayotining istalgan jabhasini tasvirlash uchun xizmat qilgan. Maqollarda ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, ijobiy fazilatlarini, turmush tarzi va yashash sharoiti mujassamlashgan. Shuning uchun ham, maqollardan foydalanish anchagina insonlarga qulaylik tug'dirgan. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, buyuk bobo-kalonlarimiz ham, maqollardan anchagina unumli foydalanishganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida, o'zaro nutqiy munosabatlarda, tarixiy va ilmiy asarlarda, yoki siyosiy adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan.

ASOSIY QISM

Darhaqiqat, maqollarni qanchalik chuqur o'rganganimiz sari, ularning shunchalik ma'nodorligini his qilib boraveramiz. O'zbek millatida bo'lgani kabi Eron xalqida ham maqol va matallardan foydalanish odat tusiga kirgan. Biz fors va o'zbek tillaridagi mushtarak maqollarni o'rganish davomida ikki xalq so'z san'atining naqadar jilokorligini ko'rdik va tahlil qildik. Bu maqolada maqol haqida tushuncha, fors tilida uchraydigan oila va do'stlik to'g'risidagi maqollarning, o'zbek tilidagi talqini batafsil yoritilgan.

Ma'lumki, oila barcha xalqlarda muqaddas va qadrlil dargoh hisoblanadi. Inson oilada dunyoga keladi, ulg'ayib kamol topadi, ilk qadamlarini aynan, oila a'zolarining qurshovida tashlaydi. Shunday ekan, doimo ularning qadriga yetishimiz va asrab-avaylashimiz darkor.

Quyida fors tilida oila mavzusida uchraydigan ayrim maqollarning o'zbek tilidagi tahlili beriladi:

پدر خدای کوچک است

“Ota kichik Xudodir”.

Fors va o'zbek tillarida leksik-semantik jihatdan qisman mos keladigan maqollar ro'yxatiga aynan, bu maqolni kiritish mumkin. Sababi o'zbek tilida ham “Ota rozi-xudo rozi”, “Otang

o'tirgan uyning tomiga chiqma" va yana shunga o'xshash hikmatlar mavjud. Bu maqolda otaning roziligi naqadar muhimligi, uning hurmati va oiladagi o'rni juda chiroyli qilib keltirilgan.

طفل اگر تودهء خاکستر است،

نور دو چشم پدر و مادر است

“Farzand bir uyum kul bo'lsa,

Ota-onaning ikki ko'z nuridir”

Bilamizki, farzand har doim eng shirin ne'mat hisoblangan. Bu dunyoda ota-ona uchun, farzandan boshqa hech narsa ahamiyatli emas. Ular farzandlari kulsa kuladi, yig'lasa, birga qo'shilib yig'laydi. Farzandga ota-onaning ko'z nuri deya ta'rif berilishi ham, aynan mana shundandir. “Farzand baxti-ona taxti, farzand kamoli-ota jamoli”, “Farzand-jonga payvand” kabi maqollar leksik-semantik jihatdan, shu maqolga to'g'ri keladi.

گل زن و شوهر را از یک تغار برداشته اند

“Er va xotinning guli bitta tuproqdan olingan”

Fors tilida uchraydigan bu maqol azaliy qadriyatlarining bir ko'rinishini ifodalab bergan. Bizning o'zbek xalqimizda “Er va xotin qo'sh ho'kiz” degan ajoyib bir maqol bor va bu naql qisman yuqorida ko'rib o'tgan misolimizga to'g'ri keladi. Oilada er va xotinning birgalashib ish tutishi, qanday masala bo'lmasin, hamfikir bo'lishlari bu maqolda yaqqol aks etgan.

عروس خوش قدم بچه اولش دختر است

“Qadami qutlug' kelgan kelinning birinchi farzandi qiz bo'ladi”.

Bu maqolda, Eron xalqining azaliy madaniyati va urf-odati, atroflicha yoritib berilmoqda. Aynan shu naqlga, leksik-semantik jihatdan qisman mos keladigan, ota-bobolarimizdan qolgan quyidagi maqolni misol qilib keltirishimiz mumkin:

“Kelinning qadami qutlug' keldi”.

عروس از راه دور آوازه دارد

Yangi kelin kelgan payti, katta-yu kichik, qarindosh-urug'lar, mahalladagi qo'shnilar – barcha uni ko'rishga chiqadi. Bu qadriyat Eron xalqida ham, bizning yurtimizda ham mavjud ekanligini shu maqolda ko'rishimiz mumkin.

Fors va o'zbek tillarida uchraydigan do'stlik to'g'risidagi maqollarning tahlilini ko'rib chiqamiz.

یار نیک را در روز بد شناسند

“Yaxshi do'st yomon kunda bilinadi”.

Bu maqolda do'stlikning naqadar ulug' ne'mat ekanligi, haqiqiy do'st nafaqat yaxshi kunda, balki og'ir paytlarda, do'stning holidan xabar olib, unga yelkadosh bo'la olishi tasvirlanmoqda va xuddi shu maqol, aynan o'zbek tilida ham uchrar ekan. Masalan:

“Do'st og'ir kunda bilinar”, “Daraxtni tomiri saqlar, odamni – do'sti”, “Jonga kuygan jonday do'st, jonga kuymay qanday do'st”, “Do'st – do'stga qalqon”, “Nomardni jang sinaydi, do'stni – muhtojlik”.

دوستان وفادار بهتر از خویشند

“Sodiq do'stlar yaqinlardan yaxshiroqdir”.

O'zbek xalqida ham shunga o'xshash maqollar uchrab turadi. Misol uchun: “Yaxshi do'st yuz qarindoshdan yaxshi”, “Chin do'st yuz xizmatchidan yaxshi” va boshqalar.

دوست گیری، دگر ز دست مده

Bu maqolda yangi do'st topgandan so'ng, eskisini unutmaslik uqtirilmoqda. Bizning xalqimizda ham shu maqolga o'xshash bo'lgan naqlar mavjud: “Kiyimning yangisi yaxshi, do'stning eskisi”, “Sinalmagan kishining etagidan ko'p tutma”.

Yuqorida fors va o'zbek tillarida mushtarak bo'lgan maqollar bilan tanishib chiqdik. Eronliklarda ko'p qo'llaniladigan va aynan shu maqollarning o'zbek tilida deyarli uchramaydigan misollarini ko'rib chiqamiz:

تنها علاج اشق، ازدواج است.

“Ishqning yagona davosi nikohdir”.

ازدواج عبارتست از سه هفته آشنایی، سه ماه عاشقی، سه سال جنگ و سی سال تحمل.

“Nikoh uch haftalik tanishuv, uch oylik muhabbat, uch yillik urush va o'ttiz yillik sabr-toqatdan iboratdir”.

پیش از ازدواج چشم هایتان را باز کنید و بعد از ازدواج آنها را روی هم بگذارید.)

(فرانکلین)

“Nikohdan oldin ko'zlarinigizni oching va nikohdan so'ng esa ularni yuming”. (Franklin)

خانه بدون زن، گورستان است.

“Ayolsiz uy qabriston kabidir”.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maqollar – ma'naviyat ko'zguisi, ma'rifat xazinasidir. Biz ushbu maqolada fors va o'zbek tillaridagi do'stlik va oila mavzusi bo'yicha mushtarak bo'lgan maqollarni o'rgandik, ularni leksik-semantik jihatdan tahlil qildik. Bularning ichida o'zbek tilidagi maqollarga to'liq va qisman mos keladigan naqlar mavjud ekanligiga guvoh bo'ldik.

Shu o'rinda "Farzand ya'ni "Farzand baxti-ona taxti, farzand kamoli-ota jamoli", "Farzand-jonga payvand", "Do'st og'ir kunda bilinar", "Er va xotin qo'sh ho'kiz", "Kiyimning yangisi yaxshi, do'sting eskisi", "Sinalmagan kishining etagidan ko'p tutma" kabi maqolarni keltirishimiz mumkin. Izlanishlarimiz davomida, Eron xalqida ko'p uchraydigan sof forsiy maqollarni ham ko'rib chiqdik va ikki mamlakatning xalq og'zaki ijodi naqadar yuksak ekanligiga shohid bo'ldik. Biz yoshlar, bunday qimmatbaho ne'matlarni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz va ularni kelgusi avlodga ham yetkazish uchun, bor kuch, bilim va shijoatimizni ishga solishimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Рубинчик Ю.А Персидско-русский словарь. – М., 1970г.
2. فرهنگ فارسی عامیانه، ابولحسن نجفی تهران: نیلوفر، ۱۳۷۸
3. <https://www.samatak.com/funny/adage/%D8%B6%D8%B1%D8%A8-%D8%A7%D9%84%D9%85%D8%AB%D9%84%D8%A7%D8%B2%D8%AF%D9%88%D8%A7%D8%A>
[C.html](#)
4. Vakilian Ahmad. Tamsil va masal (Proverbs and their stories). – Tehran, 1996.